TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS"

2nd FORUM OF DEVELOPMENT STRATEGY: GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS

19-20 OCTOBER

PARALLEL CONFERENCES "NEW2AN, ICFNDS AND ICDSIS"

CONFERENCE "IFRS"

"IFRS" НОМЛИ КОНФЕРЕНЦИЯ

ФОРУМ

# RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

2023

ELEKTRON ILMIY JURNALI MAXSUS SON

- Macroeconomic Stability
- Social Welfare
- Human Capital
- Decent Employment
- World Economy
- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agricultural
- Innovation in higher education

**РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ**

**DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY**

**ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ**

Электрон илмий журнал | Electronic scientific journal

## МУАССИС | FOUNDER

Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Tashkent State University of Economics

## ТАҲРИР КЕНГАШИ РАИСИ | CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD

Шарипов Конгратбой Авезимбетович — т.ф.д., профессор
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich — doctor of technical sciences, professor

## БОШ МУҲАРРИР | EDITOR-IN-CHIEF

Абдуллаев Мунис Курбонович – и.ф.ф.д. (PhD), доцент
Abdullayev Munis Kurbonovich – PhD, docent

## БОШ МУҲАРРИР ЎРИНБОСАРИ | DEPUTY CHIEF EDITOR

Вафоев Бобуржон Расулович – и.ф.н., доцент
Vafoev Boburjon Rasulovich – PhD, docent

## МАСЪУЛ КОТИБ | EXECUTIVE SECRETARY

Л.А. Аблазов | L.A. Ablazov

## ВЕБ-АДМИНИСТРАТОР | WEBMASTERS:

Н.Я. Нурсаидов, А.Ш. Махмудов | N.Ya. Nursaidov, A.Sh. Makhmudov

## ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ | EDITORIAL BOARD

С.С. Гулямов – и.ф.д., академик.
Б.А. Бегалов – и.ф.д., профессор.
М.П. Эшов – и.ф.д., профессор.
О.Қ. Абдурахмонов – и.ф.д., доцент.
К.Б. Ахмеджанов – и.ф.д., профессор.
И.М. Алимардонов – и.ф.д., доцент.
Р. Салиходжаев – и.ф.б.ф.д. (PhD).
Проф. Холназар Амонов (Чехия).
Проф. Карина Татек Банетти (Чехия).
Проф. О. Абдураззаков (Германия).
Проф. Эко Шри Маргианти (Индонезия).
Проф. Д.М. Назаров (Россия).
Проф. Н.М. Сурнина (Россия).
Проф. Марк Розенбаум (АҚШ).
PhD. Абдул-Рашид (Афғонистон).
PhD. Аҳмед Моҳамед Азиз Исмоил (Миср).
PhD. Беҳзод Саидов (АҚШ).
PhD. Умид Ахмедов (Дания Қироллиги).
А.А. Исмаилов – и.ф.д., профессор.
И.Е. Жуковская – и.ф.д., профессор.
Т.С. Қўчқоров – и.ф.д., профессор.
Р.А. Дадабаева – и.ф.н., доцент.
Ш.И. Хашимходжаев – и.ф.н., доцент.
А.А. Абидов – т.ф.н., доцент.
И.М. Абдуллаева – и.ф.н., доцент.
Н.Б. Абдусаломова – и.ф.д., доцент.
Ш.С. Эгамбердиев – и.ф.б.ф.д. (PhD).
Р.Х. Алимов – и.ф.д., профессор.
А.У. Қобилов – и.ф.н., доцент.
Р.Х. Насимов – т.ф.б.ф.д. (PhD).
С.С. Қулматова – и.ф.б.ф.д. (PhD).

МУНДАРИЖА:


| | | |
|---|---|---|
| **Шарипов К.А., Ишназаров А.И.** | ИҚТИСОДИЙ ЎСИШГА ИНВЕСТИЦИЯ ОҚИМЛАРИ ТАЪСИРИНИ ЭКОНОМЕТРИК ТАДҚИҚ ҚИЛИШ . . . . . . . . . . . . | 6 |
| **Eshov M.P., Nasirkhodjaeva D.S.** | IMPACT OF THE DEVELOPMENT DIGITAL ECONOMY ON THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE COUNTRY . . . . . . . . | 14 |
| **Abdurahmanova G.Q., Mirzaliyev S.M.** | OLIY TA’LIM TRANSFORMATSIYASINING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARI . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 25 |
| **Гулямов С.С., Шермухамедов А.Т.** | ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 28 |
| **Abdullayev M.K., Qulmatova S.S.** | LOYIHALASH JARAYONLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA DIZAYN MUAMMOLARI . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 34 |
| **Абидов А.А.** | ДИАГНОСТИРОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ В УСЛОВИЯХ ВОЗМУЩАЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ СРЕДЫ . . . . . . | 40 |
| **Юлдашев А.А.** | ЛОГИСТИКА СОҲАСИДА БЛОКЧЕЙН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ САМАРАДОРЛИГИ . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 47 |
| **Yakubova Sh.Sh.** | DIGITAL DEVELOPMENT AND THE NATURE OF DIGITAL ASSETS | 56 |
| **Ergashxodjayeva Sh.Dj.** | RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XARIDORLAR MA’LUMOTLARI MAXFIYLIGINI TA’MINLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 64 |
| **Xashimxodjayev Sh.I., Zhukovskaya I.E.** | DIGITAL TECHNOLOGIES ARE A STRONG BASIS FOR THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE COUNTRY . . . . | 72 |
| **Амридинова Д.Т., Курбанова С.А.** | ЦИФРОВАЯ ЭКАНОМИКА И ОНЛАЙН ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 79 |
| **Fayziyeva Kh., Tursunov Kh., Khidirova M., Kulmanov T., Zikriyoev A.** | GROWING UP IN A CONNECTED WORLD: INTERNET USAGE DYNAMIC IS DIGITAL AGE OR HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT? . . . . . . . . . . . . . . . . . | 88 |
| **Fayziyeva M.X.** | TIJORAT BANKLARI TAKLIF ETGAN RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI BAHOLASH . . . . . . . . . . | 104 |
| **Qobilov A.O‘., Abdulaxatov M.M., Rajabov Sh.B., Zokirov S.Z.** | ASSOTSIATIV QOIDALAR VA BOZOR SAVATLARINING TAHLILI . . | 115 |
| **Ризакулов Ш.Ш.** | БЛОКЧЕЙН ТЕХНОЛОГИИ В ЭКОНОМИКЕ: НА ПРИМЕРЕ ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВО . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 121 |
| **Назарова Р.Р., Нигматуллаева Г.Н.** | СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 126 |
| **Meyliev O.R., Gofurova K.X.** | THE ROLE OF ELECTRONIC COMMERCE IN THE DIGITAL ECONOMY . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 132 |

| | | |
|---|---|---|
| **Ma'murov B.X.** | RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA HUDUDLAR IQTISODIYOTI TARKIBIY TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOHIYATI VA UNING OMILLARI . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 142 |
| **Гаипов Ж.Б.** | ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ПЛАТЕЖНЫХ СИСТЕМ НА ПРИБЫЛЬНОСТЬ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ . . . . . . . . . . . . . . . | 150 |
| **Maxmudov S.B.** | MILLIY IQTISODIYOTDA EKSPORT AMALIYOTIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK TAHLILINI BAHOLASH . . . | 160 |
| **Nursaidov N.Y., Vafoev B.R.** | PROBLEM OF LIMITED ACCESS TO THE INTERNET IN MOBILE LEARNING . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 172 |
| **Хидирова Б.И.** | РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 179 |
| **Xalilova N.K.** | O'ZBEKISTON SHAROITIDA XARIDORLARNI BOSHQARISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI . . . . . . . . . . | 187 |
| **Рахматова Ш.О.** | РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ШАРОИТИДА БИЗНЕСНИНГ ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТИНИ БАҲОЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 196 |
| **Axmedova S.I.** | RAQAMLI IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 203 |
| **Мирзарахимова А.Б.** | СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИНИ РАҚАМЛАШТИРИШДА ЭЛЕКТРОН ТИББИЙ ЁЗУВЛАРНИНГ РОЛИ . . . . . . . . . . . . . . . . . | 209 |
| **Abdurakhmonov A.A.** | O'ZBEKISTONDA RAQAMLASHTIRISH TENDENSIYALARI VA UNDAGI MAVJUD MUAMMOLAR . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 215 |
| **Abduraxmanova Z.T.** | O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNING O'RNI . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 223 |
| **Mustafakulov O'.U.** | STATISTIKA TIZIMIDAGI RAQAMLI PLATFORMALARNI BAHOLASH VA ULARNI TANLASH . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 232 |
| **Tal'atova D.B.** | RAQAMLI TENGSIZLIKNI BARQARORLASHTIRISHNING IQTISODIY O'SISHDAGI O'RNI . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 238 |
| **Nabiyeva F.O.** | RAQAMLI BANKING: QIYINCHILIKLAR, RIVOJLANAYOTGAN TEXNOLOGIYA TENDENSIYALARI VA KELAJAKDAGI TADQIQOTLAR . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 244 |
| **Yax'yayev O.Y.** | "JUST IN TIME" XALQARO MENEJMENT MODELI, O'RGANILISHI, AMALIYOTI, RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI . . . . . . . . .. | 254 |
| **Yuldashov I.S., Ro'ziev N.I.** | RAHBARNING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARINI O'RGANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 260 |
| **Тўраева Н.О.** | КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 265 |
| **Muzaffarova D.M.** | TASHKILOTNING FUNKSIONAL OPERATSIYALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH YO'LLARI . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 275 |

| | | |
|---|---|---|
| **Rustamova M.M.** | KOTLIN TILIDA YARATILGAN XIZMAT SIFATINI BAHOLOVCHI “SAFE MOBILE” ILOVASI | 285 |
| **Zikirullaeva N.** | THE ROLE OF GOVERNMENT POLICIES IN ATTRACTING DIRECT FOREIGN INVESTMENTS | 294 |
| **Anvarova M.M.** | RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONINING KICHIK VA O‘RTA BIZNES KORXONALARIGA ASOSIY TA’SIRI | 305 |
| **Parpieva R.A., Norboyeva N.E., Anvarova M.M.** | IMPROVING MEDIA LITERACY USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN PROFESSIONAL EDUCATION | 311 |

## РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ
## DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY
## ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

**ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ ЖУРНАЛ**

Мазкур электрон илмий журнал Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 19 декабрдаги "Оммавий ахборот ва коммуникациялар соҳасида давлат хизматлари кўрсатишнинг айрим маъмурий регламентларини тасдиқлаш тўғрисида"ги 1017-сонли қарорида белгиланган вазифалардан келиб чиқиб, Тошкент давлат иқтисодиёт университети томонидан 2021 йил март ойида таъсис этилган ҳамда халқаро интернет тармоғига жойлаштирилган.

This electronic scientific journal was established by the Tashkent State University of Economics in March 2021, based on the tasks defined in the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 19, 2019 No. 1017 «On approval of some administrative regulations for the provision of public services in the field of public information and communications» posted on the internet.

Нашр қилинаётган "Рақамли иқтисодиёт ва ахборот технологиялари" электрон, илмий журнали Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 31 январдаги 332/6-сон қарори билан Иқтисодиёт фанлари бўйича "Фан доктори" илмий даражасига талабгорларнинг диссертация ишлари, илмий натижалари юзасидан илмий мақолалар эълон қилиниши лозим бўлган Республика илмий журналлари рўйхатига киритилган.

The electronic scientific journal "Digital economy and information technologies" published by the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated January 31, 2023 No. 332/6 announces scientific articles on the scientific results of dissertations of candidates for the degree of Doctor of Science in «Economic Sciences» included in the list of republican scientific journals that should be published.

**Журналнинг интернет ахборот тармоғидаги манзили:**

https://dgeconomy.tsue.uz/jurnal

**The address of the journal on the internet:**

https://dgeconomy.tsue.uz/jurnal

# RAHBARNING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARINI O‘RGANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

**Yuldashov Isomiddin Sidiqovich**
*Iqtisod fanlar nomzodi, Oriental universitetining rektor maslahatchisi*

**Ro‘ziev Nasim Ibragimovich**
*Oriental universitetining "Iqtisodiyot va turizm" kafedrasi ilmiy tadqiqodchi*

***Annotasiya.*** *Jahon miqyosidagi boshqaruv modernizasiyasi taraqqiyoti sog‘lom muhit, o‘zaro hamkorlik, yuqori ishlab chiqarish va yuqori natija bilan belgilanadi. Aynan shu yo‘nalishdagi tub o‘zgarishlarni amalga oshirishda rahbar shaxslarning samarali faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv faoliyatida rahbarlarga ma’suliyat va javobgarliklarning belgilanishi, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faoliyati rahbarlarning ahloqiy va estetik jihatdan o‘z vazifasiga kirishishi jamiyat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar.*** *Axborot texnologiyalar, intellektual, modernizasiyasi, innovatsiya, kompetentlik, demokratik, konseptual asoslar, ta’limda innovatsion jarayon, innovatsion strategiya, inson kapitali, etnosotsial, dinamika, transformatsiya.*

**Kirish:**

Azaldan inson jamoaviy hayot kechirgan va samoviy boshqaruv ta’siri natijasida uning ijtimoiy faoliyatida ham boshqaruvga talabi tobora kuchaygan, rahbarlikka intilish rivojlana borgan. Boshqaruvga talab insoniyatning ijtimoiy faoliyati bilan birga paydo bo‘lgan. Qayerda ikki inson umumiy maqsad sari faoliyat boshlar ekan, bu yerda birgalikdagi harakatlarni muvofiqlashtirishga ehtiyoj tug‘ildi. Bu sharoitda bir inson rahbar, boshqaruv faoliyatini olib boradi, ikkinchisi esa faoliyatni bajaruvchisiga aylanadi. "Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko‘rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm - fan, yuqori texnologiyalar va innovasion yutuqlarni keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz"[101].

Xalqaro ilg‘or tajribalarga asosan, AQSH, Angliya, Germaniya, Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlarida professional ta’lim muassasalari rahbar xodimlarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, ularning ta’limni tashkil etish va boshqarish sohasidagi malakalarini oshirish, kasbiy, kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish borasida salmoqli amaliy natijalarga erishilgan. Shu nuqtai-nazardan kreativ fikrlovchi, izlanuvchan, innovasiyalarni izlab topuvchi va ularni o‘z amaliy faoliyatida qo‘llay olish kompetensiyalariga ega rahbar xodimlarni tayyorlash tizimini samarali tashkil etishda boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur hisoblanadi.

Har qanday ijtimoiy mehnat jarayoni u hoh kichik doirada, hoh katta doirada bo‘lsin, boshqaruvni talab qiladi. Kimdir xodimlar oldiga maqsad qo‘yishi, vazifalarni taqsimlashi, uning bajarilishini nazorat qilishi, kishilarni mehnat qilishiga undashi, ularning harakatini

101: Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2021.464 bet.

muvofiqlashtirishi lozim.

Jahon miqyosidagi boshqaruv modernizasiyasi taraqqiyoti sog‘lom muhit, o‘zaro hamkorlik, yuqori ishlab chiqarish va yuqori natija bilan belgilanadi. Aynan shu yo‘nalishdagi tub o‘zgarishlarni amalga oshirishda rahbar shaxslarning samarali faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridanoq Respublikamiz xukumati tomonidan rahbarlik va boshqaruv masalalariga alohida e’tibor berib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z nutq va ma’ruzalarida rahbarlik va boshqaruv masalalariga doim to‘xtalib o‘tadi. Zamon talablariga mos rahbar kadrlarning zaruriyati har qachon ham dolzarb ekanligini ta’kidlaydi.

XXI asrning yuksak axborot texnologiyalari va intellektual saviyaning keskin oshishi asri ekanini bugungi kun voqyeliklari ko‘rsatib turibdi. Bu holat insoniy munosabatlar sohasida ham islohotlar yuz berishi, intellektual saviyasi yuqori insonlar bilan muomala qilishning va ularga samarali ta’sir ko‘rsatishning nozik hamda o‘ziga xos usullarini tanlashni talab qiladi. Bugun dunyo xalqlari nihoyatda rang-barang, shu paytga qadar jahon hamjamiyati o‘z boshidan kechirmagan yoki misli ko‘rilmagan turli-tuman murakkab siyosiy jarayonlar ichida yashamoqda. Odamlarning siyosiy dunyoqarashi ham shunga yarasha o‘zgarib bormoqda. Bugun mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlagan O‘zbekiston uchun ham bu o‘zgarishlar o‘zining ta’sirini o‘tkazmoqda.

Boshqaruv faoliyatida rahbarlarga ma’suliyat va javobgarliklarning belgilanishi, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faoliyati rahbarlarning ahloqiy va estetik jihatdan o‘z vazifasiga kirishishi jamiyat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerakigini ta’kidlaydi. [102] Darxaqiqat bugungi davr talabi rahbarlardan qator ahloqiy sifatlarni talab qiladi. Zero, rahbar ahloqi boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini psixologik baholash, ularga zarur bo‘lgan xislatlar majmuasini ishlab chiqish, nomzodlarni to‘g‘ri tanlash masalalarini o‘rganish ijtimoiy-psixologiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Boshqaruvning bekami ko‘stligi va mukammalligi maqsadni tez va samarali amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda davlat boshqaruv faoliyatini samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 5 maydagi 369-son “Davlat xokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5185-sonli Farmoni, 2018 yil 5 maydagi PF-5430-sonli “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlariningrolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022 yil 29 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategisi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 martdagi 62-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat boshqaruv organlari va mahalliy ijro etuvchi xokimiyat organlari xodimlarining odob-ahloq namunaviy qoidalari”da belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya ishimiz muayyan darajada xizmat qiladi.

[102] Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerak. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. B-6.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi:**

Ushbu tadqiqot yuzasidan xorij va mamlakatimiz bir qator olimlari o‘z tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ushbu mavzu ham siyosiy ham pedogogik ham boshqaruv jihatdan tadqiqot ishi hisoblanadi. Ushbu mavzu tarixdan ham ko‘plab o‘rganilgan mavzulardan xisoblanadi. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Bizyukova I.V., Goranchuk V.V., Sokolov V.M.,Cherepanov V.V., Shustov A.V., Anayeva S.Ye., Grishunina Ye.V., Bazarov T.Yu., Qurbonov M., Boymurodov N., Ergashev I, Xolbekov A., Quronov M., Qo‘chqorov V., Ravshanov F., Xolov A., Boymurodov N., Raxmonov A., Axmedov X., Abduraxmonov O., Karimova V.M., Xayitov O.E., Umarova N.Sh., Maxmudov I.I. va boshqalar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar[103].

Yuqorida nomlari aytib o‘tilgan olimlarimiz tomonidan milliy merosimiz an’analarida rahbar ahloqi, ma’naviy, boshqaruvni tashkil qilish madaniyati, ijtimoiy adolat, siyosiy ahloq va salohiyatli kadrlar tayyorlash masalalariga e’tibor qaratganlar. Ammo tadqiqot ishlari doirasida boshqaruv muammolarini xal qilishda yangi metodik va psixologik usullarni qo‘llash mavzusida tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan.

**Maqsadlar:** Raxbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda ilg‘or yondashuvning o‘ziga hos xususiyatlarini taxlil qilish hamda mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Vazifalar:**

- Kompetentlik, boshqaruv kompetentligi hamda boshqaruv tushunchalarining mazmun-mohiyatiga oid ilmiy-nazariy yondashuvlarni tahlili;
- Boshqaruv kompetentligini shakllantiruvchi ijtimoiy va iqtisodiy omillarini asoslash;
- Rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligiga qo‘yiladigan malakaviy talablar;
- Rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha mahalliy va xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili;
- Rahbar kadrlarning boshqaruvdagi innovasion faoliyatlarini tasxishlash turlari va ularning prinsiplari;
- Raxbar xodimlarning boshqaruv faoliyati psixodiagnostikasi modelini tahlil qilish hamda ilmiy tavsiya va xulosalar berish.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda ilgari surilgan ilmiy va falsafiy g‘oyalardan, umumlashtirilgan xulosalardan ushbu yo‘nalishdagi bir qator fanlarning jumladan, Ta’lim menejmenti, Kattalar ta’limi (andragogika), Uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish, Pedagogika, Boshqaruv psixologiyasi kabi fanlarning mavzularini yoritishda foydalanish mumkin.

---

[103] Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriѐti, 1993.. Beruniy Abu Rayxan. Indiya. Soch., t.2. – T.: «Fan», 1963. Yusuf Xos Xojib. Qutadg‘u bilig. – T.: «Fan», 1972. Amir Temur o‘gitlari: To‘plam. Tuzuvchilar: B.Axmedov, A.Aminov. – T.: Navro‘z, 1992 Avloniy A. Turkiy guliston ѐxud Axloq. – T.: 1997. Quronov M. Rahbarlik lavozimlari professiogrammalari xaqida. Rahbar va xodim. Toshkent. Akademiya 1998. Qo‘chqorov V., Ravshanov F., Xolov A. Davlat boshqaruvida rahbar kadrlarga qo‘yiladigan talablarning nazariy-metodologik asoslari. –Toshkent Akademiya 2013. . Abduraxmonov O. Boshqaruv tizimi va раҳбар. –Тошкент Академия 2004. **Каримова V.M.,** Maxmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma Mas’ul muharrir: A.Xolbekov. – T.: DJQA “Rahbar” markazi; “YUNAKS-PRINT” MChJ, 2006.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalaridan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etishda hamda tashkilot raxbarlarining boshqaruvida jamoada sog'lom muhitni tashkil etishda foydalanish mumkin.

**Xulosa:**

Mamlakatimizda boshqaruv sohasida juda katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonni yuksaltirish va rivojlantirishda albatta rahbar kadrlarning ilmiy salohiyati yetarlicha darajada o'rin egallaydi. Shu bilan birga mamlakatimizni rivojlantirishda rivojlangan yetakchi davlatlarning boshqaruv yo'llari ham o'rganilmoqda. Bizning kadrlarimiz ham tajriba almashish maqsadida safarlar tashkil etilmoqda. Albatta buning asosiy maqsadi mamlkatimizni yanda yuksaltirish boshqaruv sohasida yosh kadrlarning iqtidorlarini qo'llab-quvvatlash va ularga keng imkoniyatlar yaratishdan ibrat. Biz ushbu tadqiqot ishimizda rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini oshirishda psixolgiya fanining o'rni ahamiyatini ochib berdik. Bir qator mamlakatlarning taraqqiyot yo'llarini o'rganish orqali o'zimizga kerakli xulosalarni chiqardik.

Bugungi kunda boshqaruv kadrlariga bo'lgan talabning ortishi albatta ma'suliyatning ham ortishiga olib keladi. Yurtimizda barcha sohalarni yuqori saviyali kadrlar bilan ta'minlash, jahon standartlari darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni egallagan mutaxassis kadlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Demak, mamlakatni modernizasiya qilish va yuksak intellektual salohiyatli jamiyatni shakllantirishda, albatta, olib borilayotgan islohotlar yaqin kelajakda o'z mevasini beradi va o'z xizmat vazifasini sidqidildan bajaradigan, sadoqat bilan ishlaydigan yuqori malakali davlat xizmatchilariga ega bo'lamiz.

Tadqiqot ishimizda o'rganishlarimiz natijasida biz o'z xulosalarimizni berib o'tmoqchimiz.

**Birinchidan,** boshqaruv rahbar kadrlarining tayyordlashda avvalo ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratish lozim. O'qituvchining rolini oshirish, ta'limni samarasini oshirish lozim. Barcha sohani rivojlantirishga avvalo ta'lim tizimini tubdan isloh qilmasdan erisha olmaymiz. Ta'limni tamomlab kelayotgan har bir fan vakillarini ilmiy salohiyatini baholash asosida ishga qabul qilish maqsadga muvofiq deb o'ylayman.

**Ikkinchidan,** ta'limni amaliyot bilan birga olib borish. Bunda ta'limda amaliy fanlarning ham o'rnini oshirish. Ularning yetakchilik qobiliyatlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratish. O'qituvchining shaxsiy xususiyatlariga ham aloxida e'tibor qaratish.

**Uchunchidan,** boshqaruv organlari bo'sh ish o'rinlarini ochiqlash va ular haqida muntazam ma'lumot berib borish. Har bir fuqaroga qiziqishlaridan kelib chiqqan holda o'z faoliyatini tanlashga imkoniyat yaratish.

**To'rtinchilan,** boshqaruv sohasi vakillarini o'z yo'nalishiga mos ekanligiga alohida e'tibor qaratish. Ularning sonini yetarli darjada tashkil etish. Men shuni anglab yetdimki bazaviy soha mutahassislari boshqa soha vakillaridan ko'ra ko'proq bilim va tafakkurga ega bo'larkan.

**Beshinchidan,** Kadrlar tayyorlash milliy dasturini tubdan yangilash va zamon talablariga mos ravishda qayta ishlab chiqish.

**Oltinchidan,** yutuqlarga erishgan yoshlarni muntazam rag'batlantirib borish. Bu soha vakillarini yanada ko'proq natijaga erishish yo'lida motivasiya vazifasini o'taydi.

Kompetensiyalar – inson kim va qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, shaxs hayotida, kasbiy faoliyatida, ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun egallashi

lozim bo'lgan layoqatlar, qobiliyatlar va hayotiy ko'nikma va malakalar majmuyidan iborat. Yakunida shuni aytish joizki, har bir shaxs kommunikativ bo'lishi, axborot bilan ishlay olishi, shaxs sifatida o'zini rivojlantirishi, ijtimoiy faol fuqaro bo'lishi, umummadaniy xislatlarga ega va fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lishi nazarda tutiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: 2019 yil.
2. 2022 yil 29 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategisi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 5 maydagi 369-son "Davlat xokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-sonli Farmoni.
5. 2018 yil 5 maydagi PF-5430-sonli "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlariningrolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 martdagi 62-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat boshqaruv organlari va mahalliy ijro etuvchi xokimiyat organlari xodimlarining odob-ahloq namunaviy qoidalari".
7. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 tomlar. - T.: O'zbekiston, 1996 – 2016.
8. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
9. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017.
10. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.
11. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - T.: "O'zbekiston", NMIU, 2018.
12. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. - T.: "O'zbekiston", NMIU, 2019.
13. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev asarlari va ma'ruzalaridan olingan fikrlar. -T.: "Yoshlar nashriyot uyi", 2019.
14. Amir Temur o'gitlari: To'plam. Tuzuvchilar: B.Axmedov, A.Aminov. – T.: Navro'z, 1992
15. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
16. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. – T.: «Fan», 1972.
17. Beruniy Abu Rayxan. Indiya. Soch., t.2. – T.: «Fan», 1963.

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ
DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
Электрон илмий журнал | Electronic scientific journal

*Muharrirlar:*
*Yaxshiyev H.T.*
*Matxo'jayev A.O.*

*Musahhih:*
*Matxo'jayev A.O.*

*Tehnik muharrir:*
*Mirzayev J.O'.*

Litsenziya AI № 2537 08.02.2022 y. Bosishga ruxsat etildi 19.10.2023.
Qog'oz bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$. Shartli bosma tabog'i 19,9. Raqamli bosma.
Adadi 50 nusxa. №16/10-2023 - sonli buyurtma.

"Zarafshon Foto" MCHJning matbaa bo'limida chop etildi.
100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Shahriobod ko'chasi, 3-uy.

19-20 OCTOBER

# 1st DIRECTION:

TRENDS AND PROSPECTIVE DIRECTIONS OF GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT.

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS"

"IFRS" CONFERENCE

ФОРУМ

...LOPMENT STRATEGY:

...AL ECONOMIC TRENDS

"IFRS" НОМЛИ КОНФЕРЕНЦИЯ

PARALLEL CONFERENCES "NEW2AN, IC... AND ICDS..." CONFERENCE

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS

- Conditions for improv...
- Corporate Account...
- Institutional problems...
- Training personnel fo...
- Business environment...
- Digital technologies i...

19-20 OCTOBER 2023 TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS, TASHKENT, UZBEKISTAN

Parallel conferences "NEW2AN, ICFNDS and ICDSIS"

ФОРУМ

I йўналиш: глобал иқтисодиётни ривожлантиришнинг тенденциялари ва истиқболли йўналишлари. "Глобал ва миллий иқтисодиёт трендлари" номли конференция

RIAT


+998 71 239-28-94 http://dgeconomy.tsue.uz/

dgeconomy_tdiu@mail.ru, dgeconomy@tsue.uz

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.


ФОРУМ

- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agricultural Development